

**O'ZBEK MUSIQA USHLUBLARI-MA'NAVIYAT O'CHOG'I SIFATIDA****G.SH.Siddiqova***JDPU dotsenti:**Tel: 90 296 48 77*

Annotatsiya: *O'zbek xalqining mahalliy uslublar xalqning etnik joylashishi va urf-odatlaridan kelib chiqqan holda azal-azaldan xalq qo'shiqlari, ijro janrlari va cholg'u yo'llari yordamida rivojlanib kelgan. Sharqona qadriyatlarimizni qayta tiklash, ularga yangicha ruh berish va bugungi kun yoshlariga ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda milliy-musiqiy merosimiz, xususan, xalq qo'shiqlari alohida o'rin tutadi. Ushbu maqolada shular haqida ma'lumotlar beriladi.*

Kalit so'zlar: *Qadriyat, ma'naviyat, psixologik mexanizim, e'tiqod, udum, urf-odat, marosim, maxalliy uslublar*

Yosh avlodni ajdodlarimiz an'analari, qadriyatlari va madaniyati asosida tarbiyalash, ularda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda milliy-musiqiy merosimiz, xususan, xalq qo'shiqlari alohida o'rin tutadi.

Zero, jamiyatimizni ma'naviy-axloqiy yangilash, Sharqona qadriyatlarimizni qayta tiklash, ularga yangicha ruh berish maqsadida «Ma'naviyat va ma'rifat» Respublika markazi, hamda «Oltin meros» xalqaro jamg'armalari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'alarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash-mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir.

O'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, xususan umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan har bir fan, sinfdan tashqari olib boriladigan har bir tadbirdan o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy shakllantirish vositasi sifatida foydalanish o'ta muhim va dolzarb masaladir. Chunki mamlakat va xalqning taqdiri kelajagimiz vorisi bo'lgan ana shu yoshlarning hayotga qay darajada tayyor ekanligi va ularning ma'naviy-mafkuraviy barkamolligiga bog'liqdir. {1}

Ma'lumki, bugungi kun ta'limi oldida qo'yilgan zamonaviy talablardan yana biri musiqa o'qituvchilarining kasbiy mahoratida psixologik bimdondligi, savodxonligi va madaniyatini o'zliksiz oshirib borishdan iboratdir. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy faoliyatlarini tashkil etishda ya'ni jamoa bo'lib kuylashi, musiqa tinglashi, bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lishi va musiqiy ritmik harakatlar bajarishida asosan yoshiga xos xususiyatlarini hisobga olish, rag'barlantirishning o'ziga xos psixologik mexanizimidan foydalanish, idrok etish qobiliyati, eshitish



xotirasini mashq qildirish, fikrlash va ijodiy yondovushini yo‘naltirish o‘qituvchining darsni psixologik talablarga asosan tashkil etishiga ko‘p jihatdan bog‘lidir.

Ma'naviyat-odamning ruhiy va aqliy olamining majmuidir. U jamiyat, millat yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushunchadir.

Ma'naviyat keng ma'noda ma'rifat, madaniyat tushunchalarini ham o'z ichiga qamrab oladi. U inson va jamiyat madaniyatining negizi, ma'lum yo'nalishining bosh omilidir. Ma'naviyat boyib borsa, jamiyat ravnaq topadi va ma'naviyat qashshoqlashsa, jamiyat tanazzulga yuz tutadi. Kishshi ma'naviyati darajasi shaxsning iste'dodi, qobiliyati, uquvi, qarashlarining etukligi, rivojlanganligi bilan o'lchanadi.

Musiqqa tinglash jarayonida, bolalar turli xalq aytmilari, yallalar laparlar va shu bilan birga zamonaviy bastakor va kompozitorlar asarlaridan namunalar tinglaydilar. D. Shostakovichning ta'бири bilan aytganda, «Musiqani sevish uchun, avvalam bor uni tinglash kerak». Bola tinglangan musiqqa yoki san'at asari haqida birorta savol bermasa, unda biror hissiyot vujudga kelmasa, shaxsiy hissiyot va munosabat bilan bog'lanmagan habar tarzidagi aloqagina paydo bo'lsa, demak vazifa bajarilmagan, maqsadga erishilmagan hisoblanadi.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya oldida turgan asosiy maqsadlardan biri — yosh avlodga ajdodlarimizning asrlar davomida orttirilgan ma'naviy boyliklarini singdirish, ularda insoniy fazilatlarini qaror toptirish va muntazam rivojlantirib borish, Vatan va millat oldidagi burch va mas'uliyatini his etishga o'rgatishdan iboratdir.

“O‘zbek musiqasi iborasi” keng mazmunli tushincha bo‘lib,u, jumladan o‘z ichiga milliy musiqamizning ikki asosiy qatlamini – xalq musiqasi va ustoz san'atkorlar ijodi bo'lgan kasbiy musiqqa sohalarini hamda bastakorlik va kompozitorlik kabi zamonaviy musiqqa ijodiyoti tarmoqlarini qamrab oladi. Shuningdek, “o‘zbek musiqasi” mazmunida 4ta asosiy mahaliy uslublar mavjud va ular quyidagicha nomlanadi;

Surxondaryo-Qashqadaryo musiqqa uslubi:

Buxoro- Samarqand musiqqa uslubi

Xorazm musiqqa uslubi:

Farg'ona –Toshkent musiqqa uslubi.

Har bir mahaliy musiqiy uslub o'z xususiyati va an'analariga ega. Bu an'analar esa uzoq davrlar mobaynida shakllangan bo'lib, ular xalqimizning turli sharoitdagi turmish tarzi, urf-odat bayramlari va boshqa shu kabi jarayonlar bilan uzviy bog'lanib ketadi.

V.I.Petrushin "Musiqiy psixologiya" asarida musiqaning psixologik xususiyatlari haqida to'xtalar ekan, musiqqa idrokiga ham to'xtalib o'tadi.

Uning fikricha, tinglovchi biror bir musiqiy asami tinglaganda, uning muallifi va kuyning nomini avval eshitgan bo'lsa darhol aniqlay oladi. Har bir musiqiy asar insonning hayoti davomida orttirgan taassurotlari, kechinmalarini o'yg'otadi. Lekin tinglovchi musiqiy asami tinglaganda, o'zining emas, balki kompozitorning kayfiyati,



his-tuyg'ularini musiqaning ifoda vositalari orqali anglashi kerak. V.Petrushinning fikriga ko'ra, musiqiy idrokni shakllantirish bu musiqiy eshitish qobiliyatini shakllantirishga bog'liq ekan. Lekin u yana shuni ta'kidlaydiki, kishining tarbiya ko'rgan muhiti, bilimi, yoshi ham uni musiqiy idrokiga sezilarli ta'sir ko'rsatar ekan. Har bir kishining musiqiy didi uning turar joyi, yashash muhiti va uni o'rab turgan ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liq.

Sharqona tarbiya mezonlaridan imon, e'tiqod kabi tushunchalar mavjud bo'lib, bu tushunchalarning negizida diniy madaniyatning mohiyati mujassam etilgan. Diniy madaniyatning zamirida sharq xalqlari kalom, ya'ni e'tiqod ilmi tafsir yoki g'ur'oni karim sharhi, hadis axloq-odobga oid diniy ta'limot, fikh, ya'ni ibodat, huquq, axloq, tarix, dunyoviy bilimlarni egallash yotadi.

Inson e'tiqod bilan tirik, e'tiqod bilan aziz va mukarramdir. E'tiqodli inson jamiyatning ma'naviy pokligi, barkamolligi uchun kurasha oladi. E'tiqodi mustahkam xalq o'zining dunyo madaniyati, rok insoniy munosabatlar tizimiga ega bo'ladi. Har qanday farovon turmush tarzi ma'lum e'tiqodli axloq me'yorlari shakllangan jamiyatda qaror topadi, rivojlanadi.

Dinning asrlar davomida sinovdan o'tgan ilg'or g'oyalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish o'quvchiga o'zligini anglashda yordam berishi muqarrar. Masalan, Islom dini qonun-qoidalari mazmunida sof diniy ta'limot bilan bir qatorda, har bir muslim va muslima amal qilishi zarur bo'lgan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, an'analar, sharqona urf-odatlar, udumlar, tarbiya qoidalari targ'ib etiladi. Ularning mohiyati ma'naviy-axloqiy jihatdan talqin qilingan, o'quvchi ongida shakllantirilgan taqdirda e'tiqodga aylanadi. Bunda xalq qo'shiqlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Diniy madaniyatning shakllanishida ishonch o'quvchi ruhiy holatini hissiyotini namoyon etuvchi muhim belgi hisoblanadi.

Uzbek xalq cholg'ularida zamonaviy ijrochilik san'ati o'z tarqqiyotining ko'p asrlik an'analarini meros qilib oldi. Ularning ildizlari qadim-qadim davrlarga borib taqaladi. 1933 yilda Ayratom shahristoni arxeologik qazilmalarida topilgan materiallar, qadimiy adabiy manbalar o'zidan ilgari turli musiqa asboblari bo'lganligidan dalolat beradi. Eramiz boshlarida turli-tuman xalq cholg'ularidan kundalik tur mushda, ovda, saroy hayotida, madaniy bayram marosimlarda, xalq sayillarida foydalanilgan. Xalq cholg'ulari asrlar davomida insoilarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirib, tadrijiy ravishda rivojlandi va takomillashdi. Moddiy madaniyat yodgorliklari, tasviriy san'at asarlari, jumladan, devordagi rasmlar, sopol haykalchalar va turli xil miniatyuralar eramizning VII asridayoq ikki turdagi xalq cholg'ulari ansambli mavjud bo'lgani haqida ma'lumot beradi. Ulardan biri (damli) va urma zarbli cholg'ulardan, nkkinchisi torli va mizrobli (chertma) cholg'ularidan iborat edi. Bulardan tashqari, nay, surnay, chang, tambur, ud va g'ijjak kabi cholg'ularda yakkanavoz ijrochilik ham mavjud ekanligi ma'lum.



Repertuar esa xalq ohanglari va cholg'uchilar bastalagan asarlardan tuzilgan. Ijrochilik xalq og'zaki ijodi va klassik adabiyot bilan uzviy aloqada rivojlangan (musiqani yozib olish usuli ancha keyin paydo bo'lgan). O'rta asrlarda xalq musiqa ijodining og'zaki an'analari keng tarqalgan bo'lib, ular cholg'u musiqasining har xil janrlarini qamrab olgan edi. To'y-tomosha, bayramlar (navro'z, hosil bayrami) xalq og'zaki ijodining an'anaviy intonanion (talaffuz) tuzilishi bilan bog'liq maqom turkumlari singari rang-barang musiqa san'ati turlari ulkan madaniy meros sifatida avloddan-avlodga o'tib kelgan. Chunonchi, yurish hamda taqlidga asoslangan uyg'un, «harbiy musiqa» shakllandi. U harbiy ko'riklarda, turli marosim va tantanalarda, shuningdek saroy a'yonlari huzurida ijro etilgan. O'rta asrlarda musiqa ijrochiligi bir-biridan farqli o'laroq uch xil mustaqil uslub kasb etdi. Ularning birinchisi Farg'ona — Toshkent ijrochilik yo'nalishi, ikkinchisi Xorazm ijrochilik yo'nalishi va nihoyat, uchinchisi Buxoro— Samarqand ijrochilik uslubidir. Tuzilishiga ko'ra oddiygina kuy va qo'shiqlar bilan bir qatorda ladtonalligiga ko'ra murakkab vokal-cholg'u musiqa shakllari — maqom turkumlari mavjud bo'lgan. Xorazm viloyati va Turkmaniston musiqasida dostonlarga asoslangan turkumlar: «Go'ro'g'li», «Alpomish», «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Bahrom va Dilorom» kabilar, Farg'ona viloyatida esa yakka cholg'u musiqasi (katta ashula, yakparda va boshqalar) shakllandi.

Xalq cholg'ulari O'rta Osiyo aholisining turmushi va mehnat faoliyatiga singib, inson faoliyatining ajralmas tarkibi qismiga aylandi. Cholg'ular jo'rligida qo'shiq, o'yin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari va oilaviy bayramlarida ijro etilgani bizga ma'lum. Bayramlar ko'proq yil fasllari bilan bog'liq bo'lgan. O'rta Osiyoda «Navro'z», «Lola sayli», «Hosil bayrami», «Qovun sayli», «Uzum sayli» kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan.

Bunday ommaviy bayramlarni xalq cholg'u ansambllari, xonanda va sozandalar hamda raqqosalarsiz tasavvur qilish qiyin. Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa, kamay, sumay, doira, nog'ora va chindoul kabi va urma zarbli musiqa cholg'ulari keng qo'llanilgan. Xalq raqslari aslida qosh o'yini, yelka o'yini, bosh o'yini kabilarni o'z ichiga olgan. Ular qarsak jo'rligida ham ijro etilgan.

O'zbek xalq musiqasining har bir hududda o'ziga xos uslublari mahalliy madaniyatni chuqur aks ettiradi va bouitadi. Har bir hududning o'ziga xos kuy va uslublarni tahlil qilish, yosh avlodda musiqiy didni shakllantirishda muhim pedagogic vosita sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.I. Karimov “Yuksak ma'navitya va yengilmas kuch” –T. SHarq 2008 y.
2. ”Yoshlar yili” davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 fevraldagi PK-805 sonli qarori.



3. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi " Ta'lim taraqqiyoti" - T. "SHarq" – 1999y.
4. R.Qodirov "Musika pedagogikasi" – Tosh."Musika".
5. Tolipov U.K. Usanboeva M. "Pedagogik texnologiyalarning tarkibiy asoslari". Toshkent "fan".2009 y.

